

Ubaydullayev Hojiakbar Fayzullo o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” yo‘nalishi

magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro xususiy huquqning muhim mavzularidan biri bo‘lgan meros munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar, chet el elementi ishtirok etgan ishlar bo‘yicha qo‘llanilishi lozim bo‘lgan asosiy kollizion normalar va ularning ahamiyati yoritilgan. Meros qoldiruvchining yashash joyi, fuqaroligi hamda mol-mulkinging joylashuvi merosga tadbiq etiladigan huquqni belgilovchi muhim mezonlar sifatida yoritib beriladi. Shuningdek, xalqaro xususiy huquqda meros masalalarida yuzaga keladigan amaliy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarining huquqiy o‘rni

Xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlar eng munozarali va dolzarb institutlaridan biri hisoblanadi. Odatda, meros huquqi shaxsning o‘z davlatidagi mulkiy va fuqarolik munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lsada, bugungi kunda globallashuv jarayonlarining tezlashuvi, migratsiya harakatining kuchayib borishi, shaxslarning turli davlatlarda yashashi, mehnat faoliyatini yuritishi, ishlashi va mol-mulkka egalik qilishi hamda boshqa davlatlarda nikohdan o‘tishi tufayli merosning xalqaro tus olishi kabi holatlar k‘opayib bormoqda. Natijada meros masalalari kabi muhim institutlarning o‘rni xalqaro xususiy huquqda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, chet el elementi ishtirok etgan meros masalalari nafaqat moddiy-huquqiy, balki kollizion-huquqiy hamda protsessual-huquqiy masalalarni ham qamrab oladi.

Meros munosabatlarida chet el elementining ishtirok etishi bir nechta asosiy holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Misol uchun, meros qoldiruvchi shaxs xorijiy davlat fuqarosi bo‘lishi, uning doimiy yashash joyi yoki fuqaroligi xorijda bo‘lishi, meros tarkibida xorijda joylashgan ko‘chmas yoki ko‘char mol-mulk mavjud bo‘lishi, vasiyatnomalarning chet davlatda rasmiylashtirilishi, merosxo‘rlarning turli davlat fuqarolari bo‘lishi va boshqa shunga o‘xshash holatlar meros masalasida chet el elementini mavjud ekanligiga asos bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday holatlarda merosga doir munosabatlarga aynan qaysi davlat huquqi tatbiq etilishini aniqlash masalasini dolzarb qiladi. Natijada meros masalasi ko‘tarilayotgan davlatlarning kollizion normalari o‘rtasida muayyan tafovutlar yuzaga kelib, amaliyotda meros bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab huquqiy masalalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xalqaro amaliyotga to‘xtalar ekanmiz, xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarini tartibga solishda va nizolarni hal etishda asosiy omil merosga tadbiq etiladigan huquqni belgilovchi kollizion normalar hisoblanadi. Bunda asosan, shaxsning fuqaroligi (*lex patriae*), uning doimiy yashash joyi (*lex domicilii*), mol-mulki joylashgan

hudud (*lex rei sitae*), vasiyatnoma tuzilgan joy huquqi yoki meros qoldiruvchining so‘nggi xohish-irodasi kabi mezonlarga tayangan holda belgilanishi lozim. Turli davlatlar ushbu mezonlardan turlicha foydalanadi. Ba‘zi davlatlar meros masalalarida fuqarolik tamoyilini ustuvor deb bilsa, boshqa ba‘zi davlatlar esa yashash joyini asosiy e‘tiborga olish zarur bo‘lgan mezon sifatida qabul qiladi. Bu esa xalqaro meros ishlari bo‘yicha huquqni qo‘llash masalasida bir xillik bo‘lmasligiga olib keladi.

Merosga tatbiq etiladigan huquqni aniqlashda ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq munosabatlar alohida ahamiyatga egadir. Xalqaro huquq amaliyotida ko‘chmas mulk joylashgan davlat huquqining ustuvorligi deyarli mutlaq qoida sifatida e‘tirof etiladi. Chunki, har bir davlat o‘z hududida joylashgan mulk ustidan to‘liq suverenitetga ega bo‘lib, ularning tartibga solinishi faqat shu davlat qonunchiligi bilan belgilanadi. Ko‘char mol-mulkda esa, odatda, meros qoldiruvchining oxirgi yashash joyi huquqi qo‘llaniladi. Shu bilan birga, meros munosabatlariga oid masalalar tufayli vaziyat xalqaro tus olishi davlatlar o‘rtasida turli kelishmovchiliklarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Misol uchun, bir davlat marhumning oxirgi yashash joyi huquqini qo‘llashni talab qilsa, boshqa davlat uning fuqaroligini asosiy mezon sifatida tanlab, meros masalasida muammolarga duch kelishi mumkin. Shunga o‘xshash kollizion vaziyatlar ko‘pincha sud yurisdiksiyasi, merosni tasdiqlash tartibi, vasiyatnomaning mavjudligi va ularning haqiqiylikni tekshirish hamda ularning xalqaro tan olinishi kabi masalalarda namoyon bo‘ladi. Shu bois xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarining chuqur o‘rganilishi va tahlil qilinishi nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliyotda ham katta ahamiyatga ega.

Xalqaro xususiy huquqda chet el elementi mavjud meros munosabatlarini tartibga soluvchi kollizion normalar

Odatda xalqaro xususiy huquqning merosga oid bo‘limi murakkab kollizion mexanizmlar bilan tavsiflanadi. Chunki meros qoldiruvchi shaxsning fuqaroligi, yashash joyi, vasiyatnomaning shakli, mazmuni, mol-mulkning joylashuvi va merosxo‘rlarning maqomi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bevosita turli davlatlar bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Yuqorida ta‘kidlanganidek, aynan kollizion normaning asosiy vazifasi biror meros ishini qaysi davlat huquqi bilan tartibga solish lozimligini aniqlashdan iborat. Ushbu mexanizm to‘g‘ri qo‘llanilmagan taqdirda nafaqat huquqiy noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin, balki turli davlatlar sudlari o‘rtasida yurisdiksiya masalalari yuzasidan tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, amaliyotda shaxs garchi o‘zi bir davlatda muqim yashab, mehnat faoliyati bilan shug‘ullansada, jamg‘argan mablag‘lari evaziga mol-mulkining sezilarli qismi boshqa davlatda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bu kabi holatlar esa merosga tatbiq etiladigan huquqning to‘g‘ri aniqlanishiga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

Merosga oid kollizion normalar odatda ikki yondashuvdan biriga asoslanadi: biri meros qoldiruvchining shaxsiy-huquqiy maqomiga (*lex patriae* yoki *lex domicilii*) bog‘lanish, ikkinchisi esa mulkning obyektiv joylashuviga (*lex loci rei sitae*) tayanishdir. Ushbu yondashuvlar har xil yurisdiksiyalarda turlicha qo‘llanishi mumkin. Misol uchun, Yevropa huquq oilasiga mansub mamlakatlar, xususan Fransiya, Italiya, Ispaniya kabi davlatlar odatda meros qoldiruvchining odatdagi yashash joyi huquqini bosh mezon sifatida

belgilaydi. Bunda meros qoldiruvchining umrining asosiy qismini qayerda yashab o‘tgan, ijtimoiy aloqalari, mehnat faoliyati aynan qaysi davlat bilan bog‘langan bo‘lsa, o‘sha davlat huquqi tatbiq etiladi. Angliya kabi ingliz huquqi tizimiga mansub davlatlar esa ko‘p hollarda ko‘char mulk uchun yashash joyi tamoyilini, ko‘chmas mulk uchun esa mulkning joylashgan hududi tamoyilini qo‘llaydi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligi hamda xalqaro xususiy huquq normalariga ko‘ra, meros masalalarining ko‘p qismi meros qoldiruvchining fuqaroligi tamoyiliga bog‘lanadi. Ya’ni O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan shaxsning vasiyatsiz merosi odatda O‘zbekiston Respublikasi huquqi bilan tartibga solinadi. Ammo ko‘chmas mulk xaridorlarining xalqaro miqyosda faoliyat yurita boshlagani, xorijda O‘zbekiston fuqarolarining ko‘chmas mulkka egalik qilish holatlari keskin ko‘payishi bu tamoyilning doimo yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Chunki odatda ko‘chmas mulkka nisbatan mulk huquqi har doim uning joylashgan davlat huquqiga bo‘ysunadi. Bunday qoidaning sababi sifatida esa davlat o‘z hududidagi yer va ko‘chmas obyektlarni tartibga solish bo‘yicha mutlaq suverenitetga ega ekanligi ko‘rsatiladi. Natijada, O‘zbekiston fuqarosi ya’ni meros qoldiruvchi O‘zbekistonda yashagan bo‘lsada, Turkiyada yoki Qozog‘istonda ko‘chmas mulkka ega bo‘lsa, mazkur mol-mulk bo‘yicha meros to‘liq yoki qisman xorij huquqi bo‘yicha hal qilinishi mumkin.

Kollizion normalarning amaliy qo‘llanilishida uchraydigan asosiy muammolardan biri bu merosning turli tarkibiy qismlariga turlicha huquq qo‘llanishidir. Misol uchun, meros qoldiruvchi shaxsning ko‘chmas mulki bir davlatda, ko‘char mulki esa boshqa bir davlatda, vasiyatnomaning huquqiy kuchi esa uchinchi davlat huquqiga bog‘lanishi mumkin. Bu esa meros ishini yuritayotgan sud yoki notarial idoralardan murakkab huquqiy tahlil talab etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, turli xalqaro shartnomalar, xususan Gaaga Konferensiyasining merosga oid konvensiyalari davlatlar o‘rtasida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, 1961-yilgi Gaaga Konvensiyasi vasiyatnoma shaklining to‘g‘riligini baholashda **“ko‘p tomonlama yaroqlilik”** tamoyilini joriy etgan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, agar vasiyatnoma kamida bir davlatning huquqiy talablariga mos bo‘lsa, u boshqa davlatlarda ham yaroqli deb topiladi. Bunday mexanizm meros ishi bo‘yicha xalqaro to‘siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Yevropa Ittifoqining 650/2012-sonli Reglamenti esa merosda qo‘llaniladigan asosiy mezonlardan biri **“odatdagi yashash joyi”** tamoyilini belgilagan va bu tamoyil Yevropa mamlakatlarining qator davlatlarida meros masalalarida ko‘plab bahslarni kamaytirgan¹.

Kollizion yondashuvlar bilan birga, xalqaro xususiy huquqda meros masalalarida yana bir muhim omillardan biri bu yurisdiksiya masalasidir. Aynan qaysi davlat sudi meros ishini ko‘rib chiqishi kerak? Aynan qaysi davlatning notarial idorasi merosni tasdiqlashi lozim? Qaysi davlatning hujjatlari o‘zaro tan olinishi shart? Odatda amaliyotda bu kabi savollarga bir vaqtning o‘zida aniq javob berish har doim ham oson emas. Chunki ba’zi holatlarda ikki davlat ham meros masalalarida o‘zini vakolatli deb hisoblaydi. Misol uchun, meros qoldiruvchining doimiy yashash joyi O‘zbekistonda bo‘lishi, lekin u Qozog‘iston

¹ <http://data.europa.eu/eli/reg/2012/650/oj>

fuqaroligiga ega bo‘lishi mumkin yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Shu kabi vaziyatlarda yurisdiksiya masalalari to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Amaliyotda esa bunday to‘qnashuvlar odatda davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar yoki xalqaro odat normalari orqali bartaraf qilinadi.

Xalqaro xususiy huquqda meros masalalari jarayonida duch kelishimiz mumkin bo‘lgan asosiy muammolardan yana biri meros bo‘yicha hujjatlarning tan olinishi va tasdiqlanishi masalasidir. Xorijda berilgan vasiyatnoma, merosga doir sud qarori, notarial tasdiqlangan hujjatlar boshqa davlatda tan olinishi uchun apostil yoki konsullik tasdiqlashi kabi shartlar talab etilishi mumkin. Bu kabi talablar meros bo‘yicha ko‘rilayotgan ishning umumiy muddatini uzaytiradi, xarajatlarni oshiradi va merosxo‘rlar uchun qo‘shimcha murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, bugungi kunda ko‘plab davlatlar hujjatlarning o‘zaro tan olinishi bo‘yicha konvensiyalarga qo‘shilishga intilmoqda.

Ushbu o‘rinda xalqaro xususiy huquqda merosga oid yondashuvlar nafaqat nazariy, balki so‘nggi yillarda mehnat migratsiyasining kuchayishi, ta‘lim olish maqsadida chet elga vaqtinchalik chiqish holatlarining ko‘payishi va turli davlatlarda yashayotgan diasporalarning soni oshgani sababli amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston fuqarolari orasida Turkiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya va boshqa davlatlarda mol-mulk xarid qilayotganlar sonining ko‘payishi merosga doir munosabatlarda xalqaro normalar qo‘llanilishini kundalik hayotiy masalaga aylantirmoqda.

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA MEROS MUNOSABATLARINING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA ILG‘OR XALQARO YECHIMLAR

Xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarining dolzarbligi, avvalo, global migratsiya, mulkning transchegaraviy shaklda ko‘payib borishi va fuqarolarning bir nechta yurisdiksiyalarda bir vaqtning o‘zida shaxsiy hamda mulkiy manfaatlarga ega bo‘layotgani bilan izohlanadi. Bu esa merosning xalqaro-huquqiy tartibga solinishi milliy huquq tizimlari o‘rtasida yuzaga keladigan koliziyalarni bartaraf etish va merosxo‘rlarning qonuniy huquqlarini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu bosqichda xalqaro xususiy huquq sohasi tomonidan bir qator fundamental masalalar, jumladan, **lex patriae** va **lex domicilii** tamoyillarining o‘zaro raqobati, ko‘chmas mulkning huquqiy rejimi, vasiyatlar shaklining haqiqiyligi, notarial harakatlarni tan olish va ijro etish, meros ishlarini yuritish vakolatlari kabi kompleks jihatlar o‘rganiladi.

Jahon xalqaro xususiy huquqi amaliyotida meros bilan bog‘liq transmilliy tortishuvlar ko‘p uchraydi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi hududida ko‘chib ishlayotgan O‘zbekiston fuqarolarining ushbu mamlakatlarda orttirgan mulki bo‘yicha meros ishlari ko‘pincha qaysi davlat huquqi qo‘llanishi, qaysi davlat sudi ishni ko‘rishi va vasiyatning haqiqiyligi masalasida tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunday holatlarda Yevropa Parlamenti hamda Yevropa Kengashining 2012-yil 4-iyuldagi **650/2012-raqamli Reglamenti** (*Succession Regulation*) amalda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu reglament meros masalalarida “**habitual residence**” ya‘ni meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash joyi tamoyilini qo‘llashni asosiy tamoyil sifatida qabul qilgan. Bu esa *lex domicilii* tamoyili

ustunligini ko‘rsatadi va xalqaro miqyosda yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston milliy tajribasida esa qoldirilgan yoki vasiyat qilingan meros masalalari asosan *lex patriae*, ya’ni meros qoldiruvchining fuqaroligi tamoyili asosida tartibga solinadi. Ammo ushbu yondashuv, ayniqsa, mehnat faoliyatini chet el davlatida amalga oshiradigan, xorijda yashaydigan, va bir necha davlatlarda mulkiga ega bo‘lgan fuqarolar vaziyatida bir qator muammolarni yuzaga keltrishi mumkin. Bundan tashqari, meros qoldiruvchi shaxsning O‘zbekistonda fuqaroligi saqlangan bo‘lsa ham, u Germaniyada 20 yil yashagan, mulkni Germaniyada orttirgan va vasiyatni ham Germaniyada tuzgan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda Germaniya qonunchiligi vasiyatnoma shaklining haqiqiyliigi, mulk holati, meros ulushining majburiy qismi (*pfllichtteil*) bo‘yicha qat’iy tartiblarni belgilaydi. O‘zbekiston esa *lex patriae* asosida o‘z huquqini qo‘llashga urinadi. Natijada ikki davlat yurisdiksiyasi o‘rtasida kolliziya vujudga keladi.

Nazariy jihatdan olganda, xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlari mavzusida olimlar kolliziyalarni bartaraf etishda turli yondashuvlarni ilgari surgan. Masalan, italiyalik professor **A. Davi** o‘zining “*International Succession*” asarida meros masalalarida “o‘rtacha yaqinlik tamoyili” (*closest connection test*)ni asoslash zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, meros qoldiruvchining real hayotiy aloqalari mulkning turgan joyi, doimiy yashash va iqtisodiy manfaatlari joylashuvi merosga tatbiq etiladigan huquqni aniqlashda eng muhim mezon bo‘lishi lozim. Bu yondashuv bugungi kunda Yevropa meros reglamentida ham aks ettirilgan.

Ushbu munosabatlarga oid yana bir asosiy muammolardan biri bu meros obyektining tabiati va u bilan bog‘liq huquqiy rejimdir. Xalqaro xususiy huquqda ko‘chmas mulk (*lex rei sitae*) va ko‘char mulk bo‘yicha alohida yondashuvlar mavjud. Ko‘chmas mulk doimo mulk joylashgan davlatning huquqi bilan tartibga solinadi. Ushbu tamoyil deyarli barcha davlatlar milliy qonunchiliklarida mustahkam o‘rin olgan. Shuning uchun, agar O‘zbekiston fuqarosi Germaniyada ko‘chmas mulkka ega bo‘lsa, ushbu mulkning meros bo‘yicha o‘tishi faqat Germaniya qonunchiligi bilan belgilanadi. Bu esa milliy huquqning xalqaro miqyosda qo‘llanish chegaralarini aniq belgilaydi.

Vasiyatnomalarning shakli bo‘yicha ham xalqaro sud amaliyotda sezilarli farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, Amerika Qo‘shma Shtatlarining Kaliforniya shtati qo‘lda yozilgan (*holographic will*) vasiyatnomani haqiqiy deb tan olishi mumkin, lekin Germaniya esa uni qat’iy formal talablarga (*notarial tasdiq yoki rasmiy tartib*) javob bermagan deb hisoblab, haqiqiy emas deb topadi. Xalqaro xususiy huquqda bu borada **1961-yilgi Gaaga Konvensiyasi** muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u vasiyat shaklining haqiqiyliigi borasida “ijobiy haqiqiylik” (*favor testament*) tamoyilini belgilagan. Ya’ni agar vasiyatnoma biror-bir tegishli yurisdiksiya huquqi bo‘yicha haqiqiy bo‘lsa, u tan olinishi kerak.

Meros munosabatlari bo‘yicha xalqaro amaliyotda yana bir yirik muammo bu transchegaraviy notarial harakatlarni tan olish hisoblanadi. Vasiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, meros mulkini inventarizatsiya qilish va meros huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni

(probate) boshqa davlatlarda e’tirof etish kabi masalalar notarial harakatlarni tan olishdagi asosiy harakatlardir. Yevropada bu borada yagona “**European Certificate of Succession**” instituti mavjud bo‘lib, u merosxo‘rga butun Yevropa hududida bir xil yuridik kuchga ega hujjat beradi. O‘zbekiston va MDH davlatlarida bunday yagona sertifikat tizimi mavjud emas, bu esa chet elda meros mulkini rasmiylashtirishni sezilarli murakkablashtiradi.

O‘zbekiston amaliyotida meros ishlari bo‘yicha chet davlatlarda notarial tasdiqlangan hujjatlarning tan olinishi ko‘pincha “apostil” yoki konsullik tasdig‘idan o‘tishni talab etadi. Xalqaro migratsiya keskin oshgan hozirgi davrda bunday rasmiyatchiliklar merosxo‘rlar uchun ortiqcha vaqt va moddiy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, yirik davlatlar (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Polsha) tajribasida xalqaro notarial hujjatlarni avtomatik tan olish mexanizmi keng qo‘llanmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, professor **R. K. Molotova** xalqaro xususiy huquqda meros masalalarida *lex patriae* tamoyilining eskirganligi, global migratsiya sharoitida u meros ishlarining real hayotiy mohiyatini aks ettirmasligini ta’kidlaydi. U o‘z asarida shunday deydi: “*Meros qoldiruvchining fuqaroligi emas, balki uning real hayotiy aloqalari, iqtisodiy manfaatlari va yashash joyi meros huquqining asosiy belgilovchi mezon bo‘lishi lozim*”. Bu fikr xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Davlatlar tajribasiga nazar solganda, meros munosabatlarini tartibga solishda quyidagi ilg‘or modellarga duch kelamiz:

1. **Yevropa Ittifoqi modeli** meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash joyini asosiy mezon sifatida qabul qiladi va yagona sertifikat tizimini qo‘llaydi.

2. **AQSh modeli** shtatlar o‘rtasida turli meros rejimlari mavjud bo‘lsa-da, umumiy tamoyillar (Uniform Probate Code) orqali bixillashtirilgan.

3. **Yaponiya modeli** fuqarolik tamoyilini asosiy mezon sifatida saqlagan holda, ko‘chmas mulk bo‘yicha *lex rei sitae* tamoyilini qat’iy qo‘llaydi.

4. **Turkiya tajribasi** 2007-yilgi xalqaro xususiy huquq to‘g‘risidagi qonunda meros ishlari bo‘yicha keng ko‘lamli kolliziya normalari joriy etilgan.

Ushbu davlatlar tajribasi O‘zbekiston uchun ijobiy namuna bo‘lishi mumkin. Xususan, Yevropa Ittifoqidagi yagona sertifikat tizimi, AQShdagi bixillashtirilgan probate tizimi va Turkiyadagi soddalashtirilgan kollizion normalar O‘zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro xususiy huquqda meros masalalarini to‘liq isloh qilish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar juda muhim:

1. Meros qoldiruvchining doimiy yashash joyi tamoyilini milliy qonunchilikka kiritish;

2. Chet eldagi notarial hujjatlarni avtomatik tan olish mexanizmini joriy etish;

3. Meros munosabatlarida yagona xalqaro sertifikat tizimiga qo‘shilish;

4. Vasiyat shaklining haqiqiylikni aniqlashda Gaaga Konvensiyasiga mos soddalashtirilgan tartibni qo‘llash;

5. Meros munosabatlarida davlatlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini raqamlashtirish.

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA MEROS MUNOSABATLARINING MUAMMOLARI, ILG‘OR YECHIMLAR VA YAKUNIY XULOSA

Xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarining o‘ziga xosligi shundaki, bu sohada milliy huquq tizimlari o‘rtasidagi tafovutlar, notarial amaliyotlardagi farqlar, kollizion normalarning turlicha qo‘llanishi va davlatlarning huquqiy siyosatidagi o‘zgaruvchanliklar bevosita amal qiladi. Ushbu murakkabliklar nafaqat huquq nazariyasi, balki amaliyotda ham bir qator jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Birinchi muammo, tadbiiq etiladigan huquqni aniqlashdagi kolliziya. O‘zbekiston *lex patriae* tamoyiliga tayansa, ko‘plab rivojlangan davlatlar *lex domicilii* yoki *habitual residence* tamoyillarini ustun qo‘yadi. Natijada, bir davlat fuqarosi boshqa davlatda uzoq yillar yashab meros qoldirsa, qaysi davlat huquqining qo‘llanishi masalasi bahsli bo‘lib qoladi. Bu ayniqsa transmilliy oilalarda keng uchraydi. Yevropa meros reglamentining (650/2012) tadbiiqi bunday kolliziyalarni sezilarli darajada kamaytirgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston bunga qo‘shilmagani tufayli amaliyotda turli qarama-qarshiliklar davom etmoqda.

Ikkinchi muammo, vasiyat shaklining haqiqiyliigi. Dunyo huquqiy tizimlarida vasiyatning notarial tasdiqlanishi, shaxsning ruhiy holati, guvohlar ishtiroki va rasmiy talablari bo‘yicha keskin farqlar mavjud. 1961-yilgi Gaaga Konvensiyasi ushbu farqlarni yumshatish maqsadida ijobiy haqiqiylik tamoyilini joriy qilgan bo‘lsada, unga qo‘shilmagan mamlakatlarda hali ham ko‘plab tortishuvlar uchraydi. Buning oqibatida chet elda tuzilgan vasiyat O‘zbekiston hududida tan olinmasligi yoki aksincha, O‘zbekistonda tuzilgan vasiyat xorijda haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Uchinchi muammo, notarial hujjatlarni o‘zaro tan olishdagi murakkabliklar. Chet el notarial idoralarida rasmiylashtirilgan merosga oid hujjatlar apostil yoki konsullik tasdig‘idan o‘tmasdan O‘zbekiston amaliyotida qabul qilinmaydi. Bu esa chet elda yashayotgan fuqarolar uchun ortiqcha byurokратиya, xarajat va vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘ladi. Yevropa tajribasida “European Certificate of Succession” instituti bu kabi muammolarni amalda to‘liq bartaraf qilgani e‘tiborga molik.

To‘rtinchi muammo, ko‘chmas mulk merosining transchegaraviy tartibga solinishi. *Lex rei sitae* tamoyili har bir davlat ko‘chmas mulkni faqat o‘z qonuni asosida tartibga solishi kerakligini belgilaydi. Shu sababli meros qoldiruvchining vafoti bir davlatda sodir bo‘lsada, uning boshqa davlatdagi ko‘chmas mulki bo‘yicha meros ishlari alohida yuritiladi. Bu esa ikki yoki undan ortiq yurisdiksiya o‘rtasida parallel jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Beshinchi muammo, meros bo‘yicha xalqaro ma’lumotlar almashinuvi rivojlanmagan. Raqamlashtirilmagan tizimlar davlatlar o‘rtasida meros obyektlari, hisoblar, ko‘chmas mulk reyestrlari bo‘yicha tezkor va aniq ma’lumot olishni qiyinlashtiradi. Masalan, Yevropada barcha ma’lumotlar yagona elektron tizim orqali almashinadi, O‘zbekistonda esa bunday integratsiya hali yo‘q.

Muammolarga eng maqbul yechimlar

1. **Meros qoldiruvchining doimiy yashash joyi tamoyilini (habitual residence) milliy qonunchilikka kiritish.** Bu xalqaro standartlarga mos keladi va kolliziyalarni kamaytiradi.

2. **Gaaga Konvensiyasiga qo‘shilish.** Bu vasiyat shaklining tan olinishi va notarial hujjatlar o‘zaro e’tirofini soddalashtiradi.

3. **Xalqaro meros sertifikat tizimini joriy qilish.** Yevropa tajribasiga mos ravishda yagona hujjat yaratish amaliyotni sezilarli yengillashtiradi.

4. **Transchegaraviy elektron reyestrlar integratsiyasi.** Bu meros obyektlari bo‘yicha ma’lumot almashinuvida shaffoflik va tezkorlik yaratadi.

5. **Milliy kollizion normalarni zamonaviylashtirish.** Ko‘chmas mulk, vasiyat, meros ulushi, aliment va boshqa obyektlarda yagona tartibni belgilash zarur.

YAKUNIY XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalqaro xususiy huquqda meros masalalarining dolzarbligi hozirgi global migratsiya sharoitida yanada oshib bormoqda. Fuqarolarning chet davlatlarda yashashi, ishlashi, mulk sotib olishi, investitsiya qilishi va ushbu tendensiyaning rivojlanib borishi xalqaro xususiy huquqda meros munosabatlarini xalqaro darajada tartibga solishni muhim zaruratga aylantirmoqda. O‘zbekistonning amaldagi huquqiy tizimi mazkur jarayonlarga to‘liq mos emas, chunki lex patriae tamoyilining qattiq qo‘llanishi bir necha yurisdiksiyaga aloqador meros ishlarida murakkabliklar tug‘dirishi mumkin.

Davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro amaliyotda eng samarali yondashuv bu meros qoldiruvchining yashash joyi tamoyili, notarial hujjatlarning o‘zaro avtomatik tan olinishi, vasiyat shaklining kengroq e’tirofi va yagona xalqaro sertifikat tizimi joriy etilishidir. Shu sababli, O‘zbekiston milliy kollizion normalarni modernizatsiya qilishi va meros masalalarini raqamlashtirish orqali global standartlarga moslashishi zarur. Bu jarayon merosxo‘rlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash, sud jarayonlarini yengillashtirish, investorlar uchun huquqiy barqarorlikni oshirish hamda fuqarolarning xalqaro xususiy huquq munosabatlarida o‘z manfaatlarini to‘liq himoya qilish imkonini beradi.